

O'TKIR HOSHIMOVNING "O'ZBEKLAR" HIKOYASIDA MILLIYLIK MASALASI

Bekmurodova Nilufar Dilshod qizi,
O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti talabasi
quvonchbekbekmurodov@gmail.com
Yusupov Sardor Shodi o'g'li,
ilmiy rahbar, O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi assistenti

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'tkir Hoshimovning "O'zbeklar" hikoyasidagi milliylik masalasi tahlil qilinadi. Asarda milliy qadriyatlar, an'analar va mahalla muhitining inson hayotidagi o'rni aks ettirilgan. Muallif hikoyada mahalla hayotini tasvirlash orqali o'zbek xalqining ezgu fazilatlarini, insonlar o'rtasidagi mehr-oqibat va birdamlikni ko'rsatib beradi. Maqolada hikoya personajlari, ularning ichki dunyosi va milliy tafakkurining badiiy ifodasi tahlil qilinib, milliy o'ziga xoslikning badiiy tasviri ochib beriladi. Shuningdek, bugungi kunda milliy qadriyatlarning o'zgarishi va hikoyada tasvirlangan muhit bilan hozirgi davr o'rtasidagi farqlar ham tahlil etiladi. Mazkur maqola o'zbek adabiyotshunosligida milliylik masalasini o'rganishda muhim ahamiyat kasb etishi mumkin.

Kalit so'zlar. O'tkir Hoshimov, milliylik, "O'zbeklar hikoyasi", qadriyatlar, mahalla, mehr-oqibat.

OTKIR KAŞIMOV'UN "ÖZBEKLER" HİKÂYESİNDE MİLLET SORUNU

Bekmurodova Nilufar Dilshod kızı,
Özbekistan-Finlandiya pedagoji enstitüsü öğrencisi
Yusupov Sardor Shodi o'g'li,
bilimsel danışman, Özbek dili ve edebiyatı bölümü asistanı

Özet. Bu makalede Utkir Hoşimov'un "Özbekler" adlı öyküsündeki milliyet meselesi ele alınmaktadır. Eserde, ulusal değerlerin, geleneklerin ve yerel çevrenin insan yaşamındaki rolü yansıtılmaktadır. Yazar, hikâyede mahalle hayatını anlatarak Özbek halkının asil vasıflarını, insanlar arasındaki nezaket ve dayanışmayı ortaya koymaktadır. Makalede hikâyenin kahramanları, onların iç dünyası ve milli düşüncenin sanatsal ifadesi analiz edilerek, milli kimliğin sanatsal tasviri ortaya konulmuştur. Ayrıca günümüzde değişen ulusal değerler ve hikâyede anlatılan ortam ile günümüz arasındaki farklılıklar da analiz ediliyor. Bu makalenin Özbek edebiyatı çalışmalarında milliyet meselesinin incelenmesi açısından önemli olduğu düşünülmektedir.

Anahtar kelimeler. Otkir Hoshimov, milliyet, "Özbeklerin Hikayesi", değerler, komşuluk, nezaket.

ВОПРОС НАЦИОНАЛЬНОСТИ В ПОВЕСТИ УТКИРА ХАШИМОВА «УЗБЕКИ»

Бекмуродова Нилуфар Дилишод кизи,
студентка Узбекско-Финского педагогического института
Юсупов Сардор Шоди угли,
научный руководитель ассистент кафедры узбекского языка и литературы

Аннотация. В статье анализируется национальный вопрос в повести Уткира Хошимова «Узбеки». В произведении отражена роль национальных ценностей, традиций и местной среды в жизни человека. Описывая в рассказе жизнь соседей, автор показывает

благородные качества узбекского народа, доброту и солидарность между людьми. В статье анализируются герои повести, их внутренний мир, художественное выражение национального мышления, раскрывается художественное изображение национальной самобытности. В нем также анализируются меняющиеся национальные ценности сегодня и различия между окружающей средой, изображенной в рассказе, и сегодняшним днем. Данная статья может иметь важное значение при изучении проблемы национальности в узбекском литературоведении.

Ключевые слова. Уткир Хошимов, национальность, «История узбеков», ценности, соседство, доброта.

THE ISSUE OF NATIONALITY IN OTKIR KASHIMOV'S STORY "UZBEKS"

Bekmurodova Nilufar Dilshod qizi,

Uzbek-Finnish Pedagogical Institute

faculty of languages, student of uzbek language and literature

Yusupov Sardor Shodi o'g'li,

scientific advisor, assistant of the Department of uzbek language and literature

Abstract. This article analyzes the issue of nationality in the story "Uzbeks" by Otkir Hoshimov. The work reflects the role of national values, traditions, and the neighborhood environment in human life. By describing the life of the neighborhood in the story, the author shows the noble qualities of the Uzbek people, kindness and solidarity between people. The article analyzes the characters of the story, their inner world and artistic expression of national thinking, and reveals the artistic image of national identity. It also analyzes the changes in national values today and the differences between the environment described in the story and the present era. This article can be of great importance in studying the issue of nationality in Uzbek literary studies.

Keywords. Otkir Hoshimov, nationality, "The Story of the Uzbeks", values, neighborhood, kindness.

Bugungi globallashuv davrida milliylikni asrab qolish masalasi dolzarb bo'lib qolmoqda. Adabiyot esa milliy o'zlikni anglashda muhim o'rin tutadi. Belinskiy aytganidek: "San'atkor o'z asarida insonni aks ettirar ekan, o'sha inson ko'lanka emas, balki jonli odamning o'zi bo'lishi kerak; U jismoniy tuzilishga, xarakterga, axloqqa, o'z odatiga, xullas, uni hayotdagi boshqa odamlardan ajratib turuvchi barcha individual xossalarga ega bo'lishi lozim. Shuningdek, u muayyan millatga va ma'lum tarixiy davrga mansub bo'lmog'i darkor. Negaki, biror millat yoki xalqqa tobe bo'lmagan inson haqiqiy inson emas" [2, 87 b.].

Modomiki shunday ekan, milliylik qanchalik aniq va chuqur aks ettirilgan bo'lsa, san'at asari badiiy jihatdan shu qadar yetuk bo'ladi.

O'tkir Hoshimov – o'zbek adabiyotida milliylikni teran his qilgan va uni mahorat bilan ifoda etgan yozuvchilardan biridir. Uning "O'zbeklar" hikoyasida xalqimizning urf-odatlarini, qadriyatlarini va xarakterlarini yorqin aks etadi.

Ushbu maqolada mazkur hikoyadagi milliylik tasvirini tahlil qilamiz.

Hikoyada o'zbek xalqiga xos fazilatlar obrazlar orqali ifodalangan. Misol uchun asar ekspozitsiyasiga e'tibor qilaylik:

Mahallada qaysi kampirni uyidan topolmasangiz, to'ppa-to'g'ri Otinoyimnikiga boravering!

Otinoyining hovlisi past ko'chaning etagida. Uyi ham boshqalarnikidan ajralib turadi. Ikkita derazali pastak uy. Boshqalarning derazasi oldida gilos bo'lsa, Otinoyinikida ikki tup tut bor. Boshqalarning tomi tunuka bo'lsa, Otinoyining tomi shifer. Hammaning tomida televizor antennasi

bor, Otinoyinikida yo'q. Ammo uning uyi hamisha hammanikidan gavjum boladi. Doimo ochiq turadigan pastak darvozadan kirishingiz bilan eng avval dimog'ingizga gup etib rayhon isi uriladi.

Keyin bir mahalla xotinning gangur-gungur suhbatini, bolalarning qiy-chuvini eshitasiz. Mashina sig'maydigan (unga mashinaning nimayam keragi bor) tor yolakdan o'tib, qutidekkina shinam hovliga kirasiz. Ariq tortib ekilgan rayhonlar belga uradi. Osh rayhon, sada rayhon, oq rayhon, qora rayhon. Hovli etagida, eski bostirma oldida bir tup o'rik bor. Dovuchcha tukkanidan boshlab turshak bo'lguncha mahallaning qora-qura bolalari shoxdan-shoxga tarmashadi. Otinoyi o'rikni qizg'anganidan emas, bolalarga achinganidan chirqillaydi: "Hoy, uyingga bug'doy to'lgur takalar, tush, yiqilib ketasan!" "Takalar" parvo qilmaydi.

Biladiki, Otinoyining tuti ham, o'rigi ham ularniki! Umuman, bu hovli hammaniki. Erta ko'klamda sumalak shu yerda boladi. Ismaloq somsa, yalpiz somsa Otinoyining bostirmasidagi tandirda yopiladi. Keyin tut pishadi. Ketidan o'rik. Mahalladagi xotinoshi bormi, challarmi, beshik to'yi bormi, quda chaqiriqmi - hammasining maslahati shu yerda pishadi. Qancha non yopiladi, qancha guruch damlanadi. Qudalarga "to'qqiz-to'qqiz"da nimalar tortish kerak... [1, 58-59 b.] Mazkur parchada milliylik juda yorqin aks etgan. O'tkir Hoshimov o'zbek mahallasi, odatlari, urfdan chiqqan qadriyatlar va mehr-oqibatga asoslangan hayot tarzini tasvirlaydi.

O'zbeklarning hayoti mahalla bilan chambarchas bog'liq. Parchada mahalla hayoti hamjihatlik, o'zaro yordam, birlik, samimiylik kabi jihatlar bilan aks ettirilgan. Otin oyining uyi oddiy bo'lsa-da, u butun mahalla ahli yig'iladigan, maslahat qiladigan, umumiy tadbirlar o'tkaziladigan joy. "Bu hovli hammaniki", degan jumla Otin oyining mehrobonligini, uyining faqat o'ziniki emas, balki mahallaning umumiy uyi ekanini bildiradi. Sumalak pishirish, ismaloq somsa, yalpiz somsa yopish, qudalarga to'qqiz-to'qqizda sovg'a berish kabi jarayonlar o'zbek urf-odatlarini aks ettiradi.

Parchada qatnashgan: ikki tup tut, rayhon isi, o'rik shoxi, tandir - bularning barchasi milliylikni ifodalovchi badiiy obrazlardir. O'zbek xalqi tabiat bilan yaqin, uylar atrofi gullar, daraxtlar, rayhonlar bilan bezatilgan bo'ladi. Hoshimov mana shu milliy muhitni mohirlik bilan tasvirlaydi. Hikoyadagi "Otinoyi" hech kimga qo'pol gapirmaydi.

Hattoki, hovlisidagi daraxtlarga tirmashgan bolalarga ham "Uyingga bug'doy to'lgur takalar" deya "dakki" bergan bo'ladi. Uning qarg'ishida ham go'zal niyat bor. Lekin bugungi kunda bu kabi qarg'ishlar deyarli uchramaydi. Endi qo'shni bolalar daraxtga chiqsa, ularni mehr bilan emas, g'azab bilan quvib soladiganlar ko'paydi. "Tush yiqilasan" deb emas, balki "Tush, sening ishing yo'q bu yerda!" deb haydashadi. Mehr bilan aytilgan tanbehlar o'rnini keskin so'zlar, begonalik hissi egallayabdi.

Bu o'zgarishlar, aslida, milliy qadriyatlarning sekin-asta yo'qolib borayotganini ko'rsatadi. Ilgari mahallaning har bir farzandi umumiy oila farzandi bo'lsa, bugun har kim o'z bolasidan boshqasiga e'tibor qilmay qo'ydi. Otinoyining "qarg'ishi" ham, mahalla mehribonchiligi ham yo'qolib borayotgan bir odat ramzi bo'lib qoldi. Bugungi kunda Otinoyining hovlisiday mahallalar tobora kamayib bormoqda. Avvallari qo'ni-qo'shnilar bir hovlida yig'ilib, sumalak qilib, maslahatlashib, muhim qarorlar qabul qilishgan bo'lsa, hozir odamlar individual hayot tarziga o'tib ketmoqda. Hovlilar atrofi baland devorlar bilan o'ralgan, mahallalardagi ilqlik, mehr-oqibat oldingi darajada sezilmaydi. Yangi qurilayotgan uylar orasida na tut daraxtlari bor, na rayhon isi keladi. Odamlar orasidagi samimiyat, qo'shnichilik rishtalari asta-sekin zaiflashmoqda. Mahalla hayoti o'zgarib, har bir oila alohida yashashga intilmoqda. Odamlar bir-biriga mehmondo'st bo'lsa ham, ilgari bo'lgani kabi ochiq va samimiy muloqotlar kam uchraydi. Hozirgi kunda kimnidir uyida qo'shnilar yig'ilib, xonadon egasi ishtirok etmasa ham, osh damlab, non yopib yurishi odatiy hol emas. Hozirgi mahallalarda ham do'stona munosabatlar bor, ammo ularni avvalgidek mustahkam deb bo'lmaydi. O'tgan asr o'zbek mahallasining jo'shqin hayoti bugun xotiralardagina qolayotgani mudhish hodisa, albatta.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kundagi o'zgarishlarni kuzatar ekanmiz, hikoyadagi milliylik unsurlarining yo'qolib borayotganidan achinmaslikning iloji yo'q. Aslida, bunday qadriyatlar yo'q bo'lib ketishi kerak emas. Ularni asrash, ajdodlardan meros bo'lib kelgan mehr-

oqibat, jamoaviylik va mehmondo'stlik an'analarini davom ettirish – bugungi avlodning muhim burchidir. O'tkir Hoshimovning "O'zbeklar" hikoyasi bizga yo'qolib borayotgan qadriyatlarni eslatib turuvchi, asl o'zbekona hayot tarzi qanday bo'lishini ko'rsatuvchi manba sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'tkir Hoshimov. Shaharlik kuyov: hikoyalar. O'tkir Hoshimov. Toshkent, Yangi asr avlodi, 2019. 128 b.
2. To'xta Boboyev. Adabiyotshunoslik asoslari. Toshkent, O'zbekiston, 2001, 556 b.
3. Азизовна, Ю.С. Формирование чувства уважения у студентов. *Журнал NX*, 1026-1028.
4. Nasirov, A. N. (2020). Artistic chronotope interpretation in Odil Yakubov's novels. *Academicia: An International multidisciplinary Research journal ISSN222-49-7137. Impact Faktor SJIF*, 7, 498-501.
5. https://arm.samdchti.uz/library/book_view/798